

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THE EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF RUBAITS IN ALISHER NAVAI'S "NAZM UL-JAVOKHIR"****Ruqiya M. Abdullayeva***Teacher of the Department of "Mumtaz Oriental Philology"**of the New Age University*ruqiya.abdullayeva.86@gmail.com*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE****Key words:** Alisher Navoi, lyrics, hadiths, islam, Ali ibn Abu Talib, Caliph.**Abstract:** Almost all of Alisher Navoi's works contain traditional praises (praises to the Creator), naats (our Prophet Muhammad Mustafa, peace be upon him), as well as places dedicated to the glorification of saints and saints. A lot of work has been done in this regard. In this article, we attempted to analyze the places in Navoi's works about Hazrat Ali ibn Abu Talib (r.a).**Received:** 08.05.26**Accepted:** 09.05.26**Published:** 10.05.26**ALISHER NAVOIYNING "NAZM UL-JAVOHIR" ASARIDAGI RUBOIYLARNING G'OYAVIY AHAMIYATI****Ruqiya M. Abdullayeva***Yangi asr universiteti**"Mumtoz sharq filologiyasi" kafedrasida o'qituvchisi*ruqiya.abdullayeva.86@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA****Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, lirika, hadis, islom, Ali ibn Abu Tolib, xalifa va boshqalar.**Annotatsiya:** Alisher Navoiy asarlarining deyarli barchasi an'anaviy hamd(yaratganga hamd-u sanolar), na't (payg'ambarimiz Muhammad Mustafo s.a.v) hamda chohoryor va aziz-avliyolarni ulug'lash o'rinlari mavjud. Bu borada juda ko'p ishlar amalga oshirilgan. Biz esa ushbu maqolamizda Navoiy asarlarida aynan Hazrati Ali ibn Abu Tolib(r.a) haqidagi o'rinlarni tahlil qilishga harakat qildik.**ИДЕЙНОЕ ЗНАЧЕНИЕ РУБАЙИ В «НАЗМ УЛ-ДЖАВАХИР» АЛИШЕРА НАВОИ**

Рукия М. Абдуллаева

Преподаватель кафедры «Мумтаз восточной филологии»

Университета Нового Века

ruqiya.abdullayeva.86@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Алишер Навои, тексты песен, хадисы, ислам, Али ибн Абу Талиб, халиф.

Аннотация: Почти все произведения Алишера Навои содержат традиционные хамд (восхваление творца), наът (нашего пророка Мухаммада с.а.в) и прославление святых. В этом плане проделана большая работа. В этой статье мы попытались проанализировать места о Хазрате Али ибн Абу Талибе (р.а) в произведениях Навои.

Kirish. Jahon xalqlarining adabiy merosini o'rganish insonning ma'naviy olami, orzu-armonlari, tafakkur tarziga xos qonuniyatlarni kashf etishda muhim ahamiyatga ega. Xalqaro miqyosda qadimiy yodgorliklar va madaniy merosni tadqiq etish, milliy o'zlikni anglash zarurati filologiya sohasida ham jiddiy masalalarni kun tartibiga qo'yimoqda. Bugungi globallashuv jarayonida milliy adabiy meros mohiyatiga yanada chuqur kirib borish orqali uning jahon adabiyoti rivojidadagi munosib o'rnini asoslash, o'zidan keyingi davrlar adabiyotiga kuchli ta'sir o'tkazgan ijodkorlar merosini o'rganish ana shunday vazifalardan hisoblanadi. Bu jarayonda biror bir xalq badiiy tafakkuri mahsulining insoniyat ma'naviy olamini yuksaltirishdagi o'rni va ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ma'naviyatimizning o'lmas xazinasini bo'lmish mumtoz asarlar hamda ularning yaratuvchilari ijodiga bo'lgan qarashlarimizda ijobiy ma'nodagi o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganlaridek, «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon deb hisoblaymiz» (Mirziyoyev, 2016, p. 56).

Shu bois O'zbekistonda ham zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. (Resolution No. PQ-3080, 2017). Ayni shu nuqtayi nazardan qaraganda, qadim zamonlardan buyon orttirilgan boy tarixiy tajriba va ma'naviy merosimiz mazmun mohiyatini sinergetik yondashuv asosida falsafiy tadqiq va tahlil etish umuminsoniy fazilatlarini shakllantirish va targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq hayotini to'g'ri yo'lga solish, uni ezguliklarga yetaklashda ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy ijodi va faoliyati ham asosiy o'rin egallaydi. Shoir ijodini o'rganish, uni turli jihatlariga ko'ra tahlil qilish adib yashagan davrdan bugunga qadar davom etib kelmoqda. Navoiyning deyarli barcha asarlarida axloqiy qadriyatlar u yoki bu darajada tarannum etiladi. Bu asarlari bilan shoir o'zining chinakam ma'noda adib, murabbiy sifatidagi buyukligini namoyon etgan. Navoiy o'z asarlarini didaktik xarakteri ustidagi izlanishlarini o'zigacha bo'lgan pand-nasihati va hikmatga moyil arabiy, forsiy va turkiy yozma hamda og'zaki adabiyot an'alariga suyanib olib bordi va ularni yanada boyitdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Adabiyotshunos olim, professor Natan Mallayev "O'zbek adabiyoti tarixi" kitobida Alisher Navoiy ijodiga alohida-batafsil to'xtalib har bir asari haqida qimmatli fikr-mulohazalarni bildiradi.

Keyinchalik Alisher Navoiy ijodini turli jihatlarini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, atoqli o'zbek olim-navoiyshunoslari Izzat Sulton, Abduqodir Haytmetov, Suyuma G'aniyeva, Ibrohim Haqqul va boshqa adabiyotshunoslardan tomonidan olib borilgan ishlari tahsinga loyiq. Biroq shunga qaramay, bugungi navoiyshunoslikda yechimini kutayotgan muammolar ham kam emas. Ana shulardan biri shoir ijodiy merosida alohida o'rin tutgan «Nazm ul-javohir» (She'riy durdonalar, 1485) asarining manbalari va badiiyati tarjimaiy tahlili masalasidir. "Nazm ul-javohir" uchun asos bo'lib xizmat qilgan "نثر اللالي" "Nasr ul-laoliy". (Pearls of Wisdom. Ali ibn Abi Talib - manuscript, 2020, p. 6 (in Arabic) asarining muallifi Ali karimullohdur.

Hazrat Navoiyning ushbu asarlari Ali ibn Abu Tolib(r.a)ning "نثر اللالي" "Nasr ul-laoliy" asarining erkin, badiiy tarjimaiy tarzida yozilgan "Nazm ul-javohir" asaridir. Asar hikmatlari ruboiy janrda ya'ni hazaj bahrining axrab va axram musamman (Al-Akbar Dekhudo, Dictionary, Tehran - 1345. h, p. 11564(in Persian) vaznida yozilib, yanada boyitilgan holda qayta kashf etilgan, desak xato bo'lmaydi. "Nazm ul-javohir" asari ustida juda ko'p izlanishlar olib borilgan. Masalan, Ma'mura Rashidovaning (PhD) ilmiy darajasini olish uchun "Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarining matniy tadqiqoti" nomli risolasi, Рашидова М. (Ф.ф.н. ...дисс.-1990.-164-б.) Ma'rifat Rajabovanning falsafa fanlari doktori darajasini olish uchun yozgan "Alisher Navoiy "Nazm ul-javohir" asarining manbalari va badiiyati" nomli tadqiqotlarida Ali ibn Abu Tolibning "Nasr ul-laoliy" asarining yaratilish manbalari haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Navoiyning Hazrati Ali hikmatlariga qo'l urishiga yana bir sabab, faylasuf, mufassir, donishmand Payg'ambarimizga eng yaqin bo'lgan sahobiyulardan bo'lmish Ali ibn Abu Tolib ibn Abdulmuttalib (r.a) ga hurmati yuzasidan turkiyazbon xalqlarga ommafahm uslubda yozishlikni o'ziga maqsad qildi. Biz ushbu tadqiqotlardagi fikrlarga qo'shilgan holda, Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asaridan boshqa kitoblaridagi Ali (r.a) haqidagi ma'lumot va ta'riflarga e'tiborimizni qaratdik. Buyuk shoirning

qay bir asarini olib qaramang, barchasida an'anaviy hamd, na't va salovatlar bilan boshlanganiga guvoh bo'lamiz. Bu chin ma'noda Navoiy shaxsining axloqiy va diniy e'tiqodining namoyon bo'lishidir.

Avvalambor, har bir asarda muallif shaxsi qaysidir ma'noda o'z aksini topadi. Shunday ekan, asarni tahlil qilishdan oldin, Hazrati Ali shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tsak, Ali ibn Abu Tolib -islomda "Xulaf o-roshidin" lardan biri sanalmish halifa 610-yilda Makkada Abutolib ibn Abdulmuttalib oilasida tavvalud topgan. Ali ibn Abu Tolib (r.a) Muhammad (s.a.v) va sahobiyalar maktabida tarbiyalangan shijoat va zakovatda misilsiz shaxs bo'lib ulg'ayadi. Ali ibn Abu Tolib Muhammad (s.a.v)ning qizlari Fotima Zaxroga uylangan va qolaversa payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning muborak nasllari Ali ibn Abu Tolib (r.a)ning avlodlari tarafidan davom ettirilgan. Shuning uchun Ali ibn Abu Tolib musulmonlar nazdida sahobalarning ulug'i hisoblanadi.

Natijalar. Islom davri adabiyot va islom dini ta'sirida yuzaga kelgan adabiyotlar va tadqiqotlarda Ali karimulloh haqida juda ko'p ma'lumotlar uchraydi. Misol uchun, yirik arabshunos olim I.M.Filshtinskiy "Arab adabiyoti tarixi" kitobida "Hazrati Ali haqida yozib, u islom tarixidagi buyuk notiq bo'lgan. X asrda uning nutq, va'z va hikmatlari "Nahj ul-balog'a" nomida alohida kitob holida nashr etilganini yozadi. Ushbu asar daslab arabshunos fors olimi Saydali Musaviy tomonidan fors tiliga tarjima qilingan. Bu kitob saj uslubida yozilgan. Ushbu asarda uning aniq va lo'nda bayon etilgan purmano hikmatlari keltiriladi. Jumladan, "Olimning boyligi-donishmandlikda, nodonning boyligi-mol-mulkda" (I.M. Filshtinsky. Istar X century.: Nauka, 1985. c. 250 (in Russian) kabi. Turkiyalik adib Ahmad Lutfi Qozonchi Hazrat Aliga bag'ishlangan tarixiy asarida, uning shaxsiyati haqida shunday yozadi: "Butun umrini bolaligidan o'limigacha hayoti ko'zdan kechirilsa, mardlikning to'g'rilikning samimiyatning go'zal o'rnlari ko'rinadi. Fazilatga oshiq insonlarning ko'zlarini yoshlantira-digan totli xotiralar Hazrat Alining aziz hayotini nurlantirib, ziynatlab, fayz berib, fayz taratib turadi." (A.L.Kazanachi, Tashkent., 2014, p. 202 (in Turkish).

Darhaqiqat, yoshliklaridan payg'ambarimiz (s.a.v) tarbiyalarini olgan Hazrat Ali uchun Muhammad Mustafo (s.a.v)ning har bir so'zlari, xatti-harakatlari, yurish-turishlari, ibratli xulqlari tarbiya maktabi vazifasini o'tadi. Tarixiy manbalar guvohligicha, Hazrat Ali shijoatli, jasur, pahlavon inson bo'lgan. Shuning uchun ba'zi manbalarda uni «Asadulloh» (Allohning sheri) degan sifatlar bilan ataganlar. Shuning uchun Ali ibn Abu Tolib haqida eng ko'p manobalar yozilgan. Misol uchun XVII asrda bitilgan tarixiy manbasi «Siyar ul-aqtob»ida ham e'tiborli ma'lumotlar olishimiz mumkin.

وقد روى البيهقي في كتابه المصنف في فضائل الصحابة: Hazrat Ali ta'rifida shunday hadis keltirilgan: يرفعه بسنده إلى رسول الله صلى الله عليه وآله أنه قال: من أراد أن ينظر إلى آدم في علمه وإلى نوح في تقواه وإلى إبراهيم في حلمه وإلى موسى في هيبته وإلى عيسى في عبادته فلينظر إلى علي بن أبي طالب عليه السلام

«Hazrat payg'ambar ul janob haqida debdurkim, «man aroda an yanzura ila Odama va sifatih va ila Yusuf va husnihi va ila Musa va salabatih va ila Isa va zuhdihi va ila Muhammad va xulqi, fal-yanzur ila Ali ibn Abu Tolib». Bu hadisning ma'nisi buldurkim, «Har bir odamekim iroda etsa, nazar etmakni Odamg'a va uning qalbining safosig'a va Yusufg'a va uning husnig'a va Musog'a va aning salobatig'a va Isog'a va aning zuhdig'a va Muhammadg'a va aning xulqig'a, bas kerakkim, nazar etsun Ali ibn Abu Tolibg'a». (Nizamulmulk "Siyar ul-mulk", T: 1999, p. 243 (in Uzbek) Ushbu hadisdan ma'lum bo'lishicha, Ali ibn Abu Tolib (r.a.) bir qator payg'ambarlarning ba'zi sifatlarini o'zida mujassam etgan zotdir. Muallif bu hadisni keltirish orqali kitobxon ko'z o'ngida Ali ibn Abu Tolibning qiyofasi hamda timsolini qisqa, lo'nda va ayni paytda, mufassal qilib ochib beradi. Yana bir hadisda u zot boshqa sahobalardan ilmining ziyodaligi bilan ajralib turishi, ma'naviy yuksalishi yoshligidan boshlanganligi va bu yo'ldagi pirturshidi Muhammad (s.a.v.) bo'lganligi bayon etiladi. Hazrat Ali doimiy ravishda ilm o'rganish bilan shug'ullanib, islom olamining mo'tabar siymolaridan biri bo'lib yetishdi. Imom G'azzoliy singari ulkan olimlar ham «Kimya-us-saodat»dek asarini uning so'zlaridan bo'lgan من عرف نفسه فقد عرف ربه (A.H. al-Ghazali, The Chemistry of Happiness. Tehron, 1985 p.2 (in Arabic) hikmati bilan boshlagan. hikmati bilan boshlagan. U o'zining «Ihhyo ulumid-din» asarida o'z ilohiy-irfoniy g'oyalarini dalillash uchun Hazrat Alining hikmatlaridan misollar keltirgan.

Hazrati Alining “Nasr ul-laoliy” hikmatlariga mos hamda xos ruboiylar shaklida tarjima qilingan Mir Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asari Navoiy ijodining originalligi va betakror poetik xususiyatlarini ega ekanligini, adib ijodining jahon adabiyoti rivojidadagi munosib o'rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy asoslab borayotganini kuzatishimiz mumkin. Navoiy “Nazm ul-javohir” muqaddimasini quydagicha boshlashni ma'qul ko'rgan.

Yo rab, bu javohirlarniki, manzum etdim,

Chekkanim anga har nuktaki, ma'lum etdim,

Har nuqtaga bir tarona marqum etdim,

Ko'p gavhar aning zimnida maktum etdim.

Ma'nosi:

Ey xudo, bu javharlarni she'r bilan yozib chiqdim,

Turli nozik ma'noli so'zlarni terib ularning

(mazmunini) ma'lum qildim.

Har bir shunday so'zga bir ohang berdim.

Ularning orasiga ko'p gavharlarni berkitdim.

Ma'lumki oila farzandlar tarbiyasi odob axloqi borasida har qancha maslaxat va nasihat olsak kam, G'azal mulkinging sultoni, Navoiy quyidagi hikmatlarga ham go'zal sharh yozgan. "أدب عيالك تنفعهم". Bu hikmat kishining o'z qaramog'ida bo'lganlarga (oila, bolalar, rafiqasi) odob-axloq o'rgatishni, ularga foyda yetkazmoqni tavsiya etadi:

Topting chu ayol, yaxshiliq yetkurgil,
O'rgat adabu yaxshi qiliq yetkurgil,
Har necha adab bo'lsa qattig' yetkurgil,
Xaylingga adab qilib osig' (foйда) yetkurgil.

(I. Saidullaev, A. Tilavov, Be the leader of the innocent nation. Tashkent, 2025, p. 130(in Uzbek).

Bir ayolga etihsang, yaxshilik qilgin, yaxshi qilig'u, yaxshi adab o'rgatgin, adabni astoydil o'rgatgin, ahli ayolingga odob ko'rsatib, yaxshilik qil. Ma'lumki, asl hikmat arab tilida buyruq fe'li orqali bayon etilgan. Shuning uchun Navoiy uning ma'nosini qat'iy va keskin ifodalar orqali bermoqda. Hazrati Alining hikmatlarini mahorat bilan nazmga solish orqali o'quvchiga go'zal shaklda yetqazib berganini ko'rishimiz mumkin. So'zimiz isboti sifatida quyidagi hikmatni ham olishimiz mumkin, "أدب المرء خير من ذهبه" Kishining odobi uning boyligidan yaxshidir.

Oltin-kumush etma kasb davlat kunidin-
Kim tortar adab ulusni mehnat tunidin,
Gar yo'qtur adab, ne sud oltin unidin,
Elning adabi xushroq erur oltunidin.

Davlatmand vaqtingda oltin-kumush yig'magin, chunki odob elni mashaqqatdan qutqaradi. Odob bo'lmasa, oltinning jarangidan nima foyda? Elning odobi uning oltinidan yaxshiroqdir. Bu hikmat kishini mol-dunyoga ruju qo'ymaslikka va odobni afzaligini o'rgatadi. (I. Saidullaev, A. Tilavov, Be the leader of the innocent nation. Tashkent, 2025, p. 130 (in Uzbek).

Darhaqiqat inson har sohada yutuqlarga erishmoqchi bo'lsa avvalo sabrli matonatli bo'lmog'i kerak. Sabr muvaffaqiyatlarga asosdir. Bu haqda ham ajoyib hikmatli "بشر نفسك بالظفر" so'zni keltirishimiz mumkin. Navoiy bu to'g'rida yozadi:

Nafs uyiga sabr ila imorat angla,
Besabrlig'in aning sharorat angla,
Ish sabr sori anga ishorat angla
Sabrni zafar sori bashorat angla.

(I. Saidullaev, A. Tilavov, Be the leader of the innocent nation. Tashkent, 2025, p. 134 (in Uzbek).

Nafs uyiga sabr imoratini qurgin, nafsning besabrligini emonlik deb bil. Nafsni sabr tomon yurishga ishorat qilgin, sabrni zafar tomon bashorat deb bil. Shundan kelib chiqadiki, kishi o‘z hayot uchun sabr imoratini tiklamog‘i lozim. Har qanday ishning borishi sabr bilan bog‘liq.

Yuqorida keltirilgan manbalardan tashqari Alisher Navoiy ham o‘zining bir qancha asarlarida Hazrati Ali haqida to‘xtalib, u kishi haqidagi fikrlarini bayon qiladilar. Shoirning tasavvuf ta‘limotiga bag‘ishlangan “Lisonut-tayr” asarida Hazrati Ali (r.a) haqida ma‘lumot berilgan. “Lisonut-tayr” dostonining 5-12-boblari to‘rt xalifa “chohoryorlar” tavsifiga bag‘ishlangan. Mo‘minlar amiri Hazrati Ali (r.a) vasfiga bag‘ishlangan o‘n birinchi bobda bu zotning payg‘ambarimizga farzand darajasida bo‘lganliklarini aytib, ular orasida kuchli ahd mavjudligiga ishora qiladi va keyingi bobda Hazrat Alining e‘tiqod va ibodatda mustahkam ekanliklari vasf etilgan bir hikoyat keltiradi. Unga ko‘ra, g‘azot janglaridan birida Hazrat Aliga o‘q tegadi. O‘qning uchu uning suyaklarigacha botib, tortib olishning iloji bo‘lmaydi. Shunda payg‘ambarimizdan(s.a.v) bu ishning chorasini so‘raganlarida, Rasuli akram: U namoz o‘qiyotgan paytda o‘qni tortib olish payida bo‘lingiz. U namozga shunday berilgan bo‘ladiki, o‘qni tortib olganlaringni bilmay qoladi” (A.Navoi, Complete Collection of Works. 20, Tashkent, 1998, p. 303. (in Uzbek) degan ekanlar.

Hazrati Ali ibn Abu Tolib haqida Navoiyning yana bir asari “Sirojul-muslimin”da ham ma‘lumot berilgan. Asarda: “Ali karramallohu vajhahu goho yalang bosh va yalang oyoq o‘q keltirar edilar. Bir kuni Sa‘d ibn Vaqqos o‘q otar edilar. Jabroil alayhissalom keldilar. Rasululloh alayhissalom men uchun o‘q ot dedilar.” (Alisher Navoi "Siroj ul-Muslimin" T.: 2000, p. 67(in Uzbek) Bundan ko‘rinib turibdiki, Hazrati Ali kuch-qudrat, ser-g‘ayrat bobida insoniyatga o‘rnak qilib ko‘rsatadigan shaxsdir. Shu o‘rinda Ali (r.a) ilm va ilm ahliga bo‘lgan munosabatlari haqidagi ushbu so‘zlarini keltirsak bo‘ladi: العلم خير من المال. العلم يحرسك، و انت تحرس المال. العلم حاكم و المال محكوم. العلم خير من المال. علم خزانة الاموال و بقي خزان العلم اعيانهم مفقودة، و اشخاصهم في القلوب موجودة. «Ilm mol-dunyodan yaxshidir. Ilm seni qo‘riqlaydi. Mol-dunyoni esa sen qo‘riqlaysan. Ilm – hukm qiluvchidir, molning ustidan esa hukm qilinadi. Mol yig‘uvchilar o‘tib ketdilar. Ilm to‘plaguvchilar esa boqiy qoladilar. O‘zlari oramizda yo‘q bo‘lsalar-da, shaxslari qalblarda mavjuddir» (The Literature of Religion and the World: Abu Hassan Ali bin Muhammad bin Habib Al-Mawardi. Lebanon - Beirut. 2013, p.80(in Arabic) Navoiyning o‘zi ta‘kidlaganidek, (umrining gohi shodonlig‘, gohi komronlig‘) hayotining nafaqat hayoti balki ijodining yakuni hisoblangan “Mahbubu-l-qulub” asarining III fasl 9-bob “Rizo” ruknida Hazrati Ali karamullohu vajhahu haqidagi hikoyatni keltiradi (A.Navoi, Perfect Works 14th edition. Mahbub ul-qulub.-T.: "Fan", 1998, p. 303(in Uzbek)

Xulosa. Shuni aytishimiz mumkinki, Navoiy hazrati Alini avvalo, saxobalardan biri, donishmand, mufassir, qolaversa, buyuk hikmat sohibi sifatida hurmat qilgan va unga nisbatan

o'zgacha hurmat va ehtiromda bo'lgan Navoiyning ul zotni ta'rifu tavsifi o'zga manoqiblarda uchramaydi. Shoir faqat Ali ibn Abu Tolib haqlaridagi forsiy manbalardan foydalanmay balki qadimiy arabcha manbalardan unumli foydalangan. Chunki Navoiy boy kutubxona egasi bo'lgan. Navoiy Ali ibn Abu Tolibning "Nasr ul-laoliy"ni nazmiy tarjima qilib, "Nazm ul-javohir" deb nomlashi Hazrati Aliga bo'lgan cheksiz muhabbati hamda hurmatining yana bir isbotidir desak, adashmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Resolusyon sang Presidente sang Republika sang Uzbekistan No. PP-3080 nga napetsahan Hunyo 23, 2017 "Sa mga tikang sa pagtukod sang Sentro para sa Kultura sang Islam sa Uzbekistan sa idalom sang Gabinete sang mga Ministro sang Republika sang Uzbekistan." (in Uzbek)
2. N. Mallayev "Kasaysayan sang literatura sang Uzbek" T.: Teacher's Publishing House, 1965. (in Uzbek)
3. Alisher Navoi, Essays, 15 volumes, volume 15, T., 1968. (in Uzbek)
4. Alisher Navoi, Essays, 20 volumes, volume 15, T., 1999. (in Uzbek)
5. Alisher Navoi Complete Volume XXs, Volume XXs. Tomo XVI. Lison ut-tair.-T.: "Siyensya", 1998.-p. 195. (in Uzbek)
6. Alisher Navoi, Kompleto nga Koleksyon sang mga Buhat. 20 ka tomo. 14 ka tomo. Mahbub ul-qulub.-T.: "Siyensya", 1998.-p. 303. (in Uzbek)
7. Ganiyeva S. Isa ka dokumento nga may kaangtanan sa biograpiya ni Navoi. Uzbek nga lenguahe kag literatura. T.,1981 (in Uzbek)
8. Uzbek Navoi Studies of the Independence Era, Volume 10, 2021(in Uzbek)
9. Rashidova M. "Textual study of Alisher Navoi's "Nazm ul-javahir"" Candidate of Philological Sciences...diss.-T.:1990.-164-p. (in Uzbek)
10. R.M. Ang doctoral thesis ni Bakayevna nga "Mga Ginhalinan kag Arte sang "Nazm ul-jawkhir" ni Alisher Navoi" (in Uzbek)
11. I.M. Filshtinsky. Kasaysayan sa literatura sa Arabiko. V-sugod sang ika-10 nga siglo:. Science, 1985. P. 250 (in Uzbek)
12. The Chemistry of Happiness. Abu Hamid al-Ghazali. s. (in Arabic)
13. Pearls of Wisdom. From the words of the Commander of the Faithful, Ali ibn Abi Talib - manuscript. Published on November 6, 2020. (in Arabic)